aniqligi yaxshilanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, bu jarayon ta'lim oluvchilarga individual yondashuvni kuchaytirish va moslashuvchan o'quv muhitini yaratishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot almashinish algoritmlarini optimallashtirish o'zi-tekshiruvchi tizimlarning pedagogik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, ma'lumotlar oqimini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan algoritmlar talabalar bilimini baholashda obyektivlik va shaffoflikni ta'minlaydi. Shuningdek, teskari aloqa mexanizmlarining takomillashtirilishi talabalar motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot almashinish algoritmlari va ma'lumotlar oqimini tahlil qilish o'zi-tekshiruvchi tizimlarning samarali ishlashida muhim omil hisoblanadi. Pedagogika sohasida ushbu yondashuvlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirish, avtomatik baholash jarayonlarini takomillashtirish va raqamli ta'lim muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish va amaliy platformalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Akhtamova L.A. Forms of conducting an electronic learning course. Academic research in educational sciences. 2021, № 1, p. 392–400.

(2). Zakirova F.M., Nafasov M.M. Ta'lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning pedagogik asoslari. Academic research in educational sciences. 2022, 4-son, c. 917–925.

(3). Nafasov M.M. O'zbekiston sharoitida ta'limiy mobil ilovalardan foydalanish. Innovation in the modern education system. 2022, 2-t., 18-son, 857–860-betlar.

(4). Nafasov M.M. Akhtamova L.A., Sadullaeva F.A. Technology of creating educational mobile applications. Academic research in educational sciences. 2022, № 4, p. 926–933.

(5). Сазерленд Дж. SCRUM. Революционный метод управления проектами – SCRUM. The art of doing twice the work in half the time. Манн, Иванов и Фербер, 2016, 288 с. ISBN 978-5-00057-722-6.

Nafasov Mirzomurod Muxamadovich (Buxoro davlat Texnika universiteti)

INKLUZIV TA'LIMDA PSIXO-PEDAGOGIK KORREKSIYANI AMALGA OSHIRISH METODLARI

Annotatsiya. *Maqolada inkluziv ta'lim muhitida maxsus ehtiyojli o'quvchilarning psixo-emotsional holatini barqarorlashtirishda qo'llaniladigan zamonaviy psixo-pedagogik korreksiya metodlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o'quvchining kognitiv yuklamasi va emotsional barqarorligini real vaqt rejimida baholash usullari hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida kognitiv charchoqni erta aniqlash va differensial korreksiya metodlarini qo'llashning metodik tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-pedagogik adaptatsiyasini optimallashtirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'z vaqtida amalga oshirilgan pedagogik aralashuv o'quvchilarning o'quv motivatesiyasini 15–20%ga oshiradi.*

Keywords*: inkluziv ta'lim, psixo-pedagogik korreksiya, monitoring, raqamli ta'lim, emotsional holat, adaptiv o'qitish.*

Нафасов Мирзомурод Мухамадович (Бухарский государственный технический университет)

МЕТОДЫ ВНЕДРЕНИЯ ПСИХОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ В ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Аннотация. *В статье анализируются современные психолого-педагогические методы коррекции, применяемые для стабилизации психо-эмоционального состояния учащихся с особыми образовательными потребностями в инклюзивной образовательной среде. Также рассматриваются методы оценки когнитивной нагрузки и эмоциональной устойчивости учащихся в реальном времени и их влияние на эффективность обучения. В результате исследования была разработана методическая система раннего выявления когнитивной усталости и применения дифференцированной коррекции, которая способствует оптимизации социально-педагогической адаптации обучающихся. Результаты показывают, что своевременное педагогическое вмешательство повышает учебную мотивацию учащихся на 15–20%.*

Ключевые слова*: инклюзивное образование, психолого-педагогическая коррекция, мониторинг, цифровое обучение, эмоциональное состояние, адаптивное обучение.*

Nafasov Mirzomurod Mukhamadovich (Bukhara State Technical University)

METHODS OF IMPLEMENTING PSYCHO-PEDAGOGICAL CORRECTION IN INCLUSIVE EDUCATION

Annotation. *The article analyzes modern psycho-pedagogical correction methods used to stabilize the psycho-emotional state of students with special educational needs in an inclusive learning environment.*

It also examines methods for assessing students' cognitive load and emotional stability in real time, as well as their impact on learning effectiveness. The study resulted in a methodological system for early detection of cognitive fatigue and application of differential correction, which contributes to optimizing the socio-pedagogical adaptation of learners. The results indicate that timely pedagogical intervention increases students' learning motivation by 15–20%.

***Keywords**: Inclusive education, psycho-pedagogical correction, monitoring, digital learning, emotional state, adaptive teaching.*

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga psixo-pedagogik korreksiya elementlarini integratsiya qilish masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xususan, Luriya hamda Leontyevlarning madaniy-tarixiy yondashuviga asoslangan tadqiqotlarda o'quvchining kognitiv rivojlanishi uning emotsional holati va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Zamonaviy xorijiy izlanishlarda [1] esa Universal Design for Learning (UDL) konsepsiyasi doirasida psixo-pedagogik moslashuv mexanizmlarini raqamli texnologiyalar orqali qo'llashning samaradorligi isbotlangan.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham inklyuziv ta'limda individual yondashuv, differensial ta'lim texnologiyalari va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati alohida qayd etiladi. Jumladan, O'zbekiston sharoitida olib borilgan pedagogik tadqiqotlarda inklyuziv muhitda ta'lim oluvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirishda psixo-pedagogik korreksiya metodlaridan tizimli foydalanish zarurligi asoslab berilgan [2]. Biroq mazkur izlanishlarda axborot texnologiyalariga asoslangan monitoring va adaptiv korreksiya mexanizmlarining yetarli darajada tadqiq etilmagani kuzatiladi.

Bizning fikrimizga ko'ra, inkluziv ta'limda psixo-pedagogik korreksiyani samarali tashkil etish uchun an'anaviy pedagogik kuzatuv usullarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish zarur. Bu esa o'quvchilarning psixofiziologik holatini erta aniqlash, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda dars jarayonida adaptiv pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot aynan inkluziv ta'lim sharoitida psixo-pedagogik korreksiyani amalga oshirish metodlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot inkluziv ta'lim sharoitida psixopedagogik korreksiyani amalga oshirish metodlarini ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv asosida sifat va miqdoriy tadqiqot metodlari uyg'unlashtirildi. Tadqiqot 2024–2025-o'quv yillari davomida inkluziv sinflar faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalarida o'tkazildi va pedagogik, psixologik hamda axborot-texnologik komponentlarning integratsiyasiga tayandi.

Tadqiqot obyekti sifatida inkluziv ta'lim muhitida ta'lim olayotgan o'quvchilarning o'quv faoliyati jarayoni tanlandi. Tadqiqot predmeti esa o'quvchilarning psixo-emotsional holatini optimallashtirishga yo'naltirilgan psixo-pedagogik korreksiya metodlari va ularni amalga oshirish mexanizmlaridan iborat bo'ldi. Ishtirokchilar tanlovi inkluziv ta'lim mezonlariga muvofiq amalga oshirilib, turli psixofiziologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarni qamrab oldi.

Tadqiqotning metodologik asosi madaniy-tarixiy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, Universal Design for Learning modeli hamda inkluziv pedagogika tamoyillariga asoslandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan ta'lim va korreksion muhitni loyihalash imkonini berdi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida pedagogik kuzatuv, psixologik diagnostika, biometrik monitoring va refleksiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, kuzatish va biometrik monitoring metodi doirasida o'quvchilarning dars jarayonidagi psixofiziologik holati real vaqt rejimida baholandi. Bunda yurak urish tezligi (Heart Rate–HR) ko'rsatkichlari hamda yuz mimikalari maxsus sensorlar va videoanalitika vositalari orqali qayd etilib, o'quvchilarning emotsional zo'riqish, stress va toliqish holatlari aniqlashtirildi. Ushbu biometrik ma'lumotlar pedagogik kuzatuv natijalari bilan solishtirilib, kompleks tahlil qilindi. Olingan monitoring natijalari asosida individualizatsiya metodi qo'llanildi. Mazkur metod har bir o'quvchi uchun psixo-pedagogik korreksiyaning individual trayektoriyasini shakllantirishga yo'naltirildi. Individual korreksion trayektoriya o'quvchining psixo-emotsional holati, diqqat barqarorligi va kognitiv faolligi ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqildi hamda dars jarayonida moslashtirib borildi. Bu yondashuv ta'lim jarayonida differensial va adaptiv pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini yaratdi.

Psixo-pedagogik korreksiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida sensorli relaksatsiya metodi joriy etildi. Mazkur metod dars jarayonida vizual va audial stimulyatorlardan foydalanish orqali o'quvchilarning emotsional fonini boshqarishga qaratildi. Xususan, rang terapiyasi elementlari, yumshoq vizual animatsiyalar, tabiiy tovushlar va musiqiy fragmentlar orqali o'quvchilarning emotsional zo'riqishi kamaytirilib, psixologik qulay muhit shakllantirildi. Sensorli relaksatsiya mashqlari biometrik monitoring natijalariga muvofiq ravishda moslashtirilib, individual va guruhli shakllarda amalga oshirildi. Olingan empirik ma'lumotlarni tahlil qilishda taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tad-

qiqot samaradorligi dastlabki va yakuniy diagnostik ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Natijalarning ishonchliligi metodlar majmuasidan kompleks foydalanish, ma’lumotlarning o‘zaro mosligi va takroriy kuzatuvlar orqali ta’minlandi.

Mazkur metodlar majmuasi inkluziv ta’lim sharoitida psixo-pedagogik korreksiyani ilmiy asoslangan, tizimli va moslashuvchan tarzda tashkil etish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim sharoitida psixopedagogik korreksiyani amalga oshirishda biometrik monitoring, individualizatsiya va sensorli relaksatsiya metodlarini integratsiyalashgan holda qo‘llash o‘quvchilarning psixo-emotsional holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Tajriba jarayonida olingan empirik ma’lumotlar dastlabki (pre-test) va yakuniy (post-test) diagnostika ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi [3].

Biometrik monitoring natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarda dars jarayonidagi yurak urish tezligi (HR) ko‘rsatkichlarining keskin tebranishlari sezilarli darajada kamaygani kuzatildi. Dastlabki bosqichda HR ko‘rsatkichlari o‘quvchilarning emotsional zo‘riqish holatini ifodalovchi notekis dinamikani namoyon etgan bo‘lsa, korreksion ta’sirdan so‘ng bu ko‘rsatkichlar fiziologik me’yorlarga yaqinlashdi. Ushbu holat o‘quvchilarda stress darajasining pasaygani va emotsional barqarorlikning oshganini ko‘rsatadi.

Yuz mimikalarini tahlil qilish natijalari ham biometrik monitoring ma’lumotlarini tasdiqladi. Tajriba yakunida salbiy emotsional reaksiyalar (bezovtalik, charchoq, asabiylik) chastotasining kamayishi hamda neytral va ijobiy mimik reaksiyalarning ortishi qayd etildi. Bu esa psixo-pedagogik korreksiyaning o‘quvchilarning emotsional foniga samarali ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Individualizatsiya metodi asosida ishlab chiqilgan korreksion trayektoriyalar natijasida o‘quvchilarning diqqat barqarorligi va kognitiv faolligi sezilarli darajada oshdi [4]. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv qo‘llanilgan tajriba guruhida dars jarayonidagi faol ishtirok ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi. Xususan, tajriba guruhida diqqatni saqlash davomiyligi va topshiriqlarni bajarishdagi barqarorlik ko‘rsatkichlari ijobiy tomonga o‘zgargani kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Individualizatsiya metodining samaradorligi

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Diqqat barqarorligi	O‘rtacha	Yuqori
Emotsional holat	Beqaror	Barqaror
Faollik darajasi	Past-o‘rtacha	Yuqori

Sensorli relaksatsiya metodining samaradorligi emotsional zo‘riqish darajasining pasayishi orqali namoyon bo‘ldi. Vizual va audial stimulatorlar qo‘llanilgan mashg‘ulotlardan so‘ng o‘quvchilarning emotsional holati barqarorlashib, dars jarayoniga moslashuv darajasi oshgani aniqlandi. Bu holat biometrik monitoring ma’lumotlari hamda pedagogik kuzatuv natijalari bilan o‘zaro moslikni namoyish etdi.

Qiyosiy tahlil natijalari asosida an’anaviy pedagogik yondashuv bilan integratsiyalashgan psixo-pedagogik korreksiya modeli o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Nazorat guruhida psixoemotsional holat ko‘rsatkichlari nisbatan o‘zgarishsiz qolgan bo‘lsa, tajriba guruhida emotsional barqarorlik, diqqat jamlanishi va kognitiv faollik ko‘rsatkichlarida ijobiy dinamik o‘sish kuzatildi. Ushbu natijalar taklif etilgan metodlar majmuasining inkluziv ta’lim samaradorligini oshirishdagi ustunligini ilmiy jihatdan.

Taklif etilgan model asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida emotsional barqarorlik, diqqat jamlanishi va kognitiv faollik ko‘rsatkichlari an’anaviy yondashuvga nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatgan. Umuman olganda, tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim jarayonida psixopedagogik korreksiyani biometrik monitoring, individualizatsiya va sensorli relaksatsiya metodlari asosida tashkil etish o‘quvchilarning psixoemotsional holatini optimallashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar keyingi ilmiy izlanishlar va amaliy ta’lim jarayonida mazkur yondashuvni keng joriy etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari inkluziv ta’lim sharoitida psixo-pedagogik korreksiyani biometrik monitoring, individualizatsiya va sensorli relaksatsiya metodlari asosida tashkil etish o‘quvchilarning psixoemotsional holatini sezilarli darajada optimallashtirishini ko‘rsatdi. Olingan empirik ma’lumotlarning tahlili natijalarning nazariy asoslar bilan uzviy bog‘liqligini hamda ilgari olib borilgan xorijiy tadqiqotlar xulosalari bilan mos kelishini tasdiqlaydi.

Biometrik monitoring asosida olingan yurak urishi ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘quvchilarning dars jarayonidagi emotsional zo‘riqish darajasi pasayganini ko‘rsatdi. Bu holat stress va kognitiv yuklama o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan xorijiy tadqiqotlar [5] natijalari bilan mos keladi. Tadqiqotimizda HR ko‘rsatkichlarining barqarorlashuvi sensorli relaksatsiya va adaptiv pedagogik ta’sirning fiziologik asoslanganligini tasdiqlaydi.

Yuz mimikalarini tahlil qilish natijalari biometrik ma'lumotlarni sifat jihatdan to'ldirib, o'quvchilarda salbiy emotsional holatlarning kamayishi va ijobiy emotsional fonning shakllanganini ko'rsatdi. Bu natijalar inkluziv ta'limda emotsional xavfsizlikni ta'minlash muhimligini ta'kidlovchi Florian [6] va Ainscow [1] qarashlari bilan uyg'unlashadi. Muallif pozitsiyasiga ko'ra, mimik monitoring an'anaviy pedagogik kuzatuvni obyektivlashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Individualizatsiya metodi asosida ishlab chiqilgan korreksion trayektoriyalar samaradorligi 1-jadvalda keltirilgan qiyosiy natijalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Tajriba guruhida diqqat barqarorligi, faollik darajasi va emotsional holat ko'rsatkichlarining yuqori darajaga chiqishi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining [7] amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Nazorat guruhida esa an'anaviy yondashuv sharoitida mazkur ko'rsatkichlarning sezilarli o'zgarishsiz qolishi individual yondashuvning yetishmasligi bilan izohlanadi.

Sensorli relaksatsiya metodining ta'siri qiyosiy tahlil orqali yanada aniqlashtirildi. Vizual va audial stimulatorlar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning dars jarayoniga moslashuvini yengillashtirib, kognitiv faollikni oshirgan. Bu holat neyropedagogika yo'nalishidagi zamonaviy izlanishlarda ta'kidlangan multisensor yondashuvning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, taklif etilgan integratsiyalashgan model an'anaviy pedagogik yondashuvlarga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Eng avvalo, u o'quvchilarning psixofiziologik holatini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi, ikkinchidan, pedagogik ta'sir vositalarini individual ehtiyojlarga moslashtirishni ta'minlaydi, uchinchidan, inkluziv ta'lim muhitida emotsional barqarorlikni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlaydi.

Muallif nuqtayi nazariga ko'ra, mazkur yondashuv inklyuziv ta'limda psixopedagogik korreksiyani faqat yordamchi mexanizm sifatida emas, balki ta'lim jarayonining integral tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari ushbu modelni amaliyotga joriy etish inkluziv ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot bir qator cheklovlarga ega. Avvalo, biometrik monitoring jarayoni cheklangan miqdordagi ishtirokchilar bilan olib borildi, bu esa natijalarni keng miqyosda umumlashtirish imkoniyatini qisman cheklaydi. Shuningdek, psixofiziologik holatni baholashda yurak urishi va yuz mimikalariga asoslanish ayrim subyektiv omillarni to'liq qamrab olmasligi mumkin.

Tadqiqot doirasida korreksion ta'sirning asosan qisqa muddatli natijalari tahlil qilindi, psixo-pedagogik korreksiyaning uzoq muddatli ta'siri esa alohida o'rganilmadi. Bundan tashqari, texnologik vositalarning texnik aniqligi va pedagoglarning raqamli kompetensiyasi tadqiqot natijalariga ta'sir etuvchi omillar sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot inkluziv ta'lim sharoitida psixo-pedagogik korreksiyani amalga oshirishning samarali metodlarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi. O'tkazilgan nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari biometrik monitoring, individualizatsiya va sensorli relaksatsiya metodlarini integratsiyalashgan holda qo'llash o'quvchilarning psixoemotsional holatini barqarorlashtirish va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida yurak urishi va yuz mimikalari kabi biometrik ko'rsatkichlarga tayangan holda o'quvchilarning dars jarayonidagi psixofiziologik holatini real vaqt rejimida baholash imkoniyati yaratildi. Olingan natijalar inkluziv muhitda an'anaviy pedagogik kuzatuv usullarining cheklanganligini bartaraf etish hamda psixo-pedagogik korreksiyani obyektiv ma'lumotlarga asoslangan holda tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi.

Individualizatsiya metodi asosida ishlab chiqilgan korreksion trayektoriyalar o'quvchilarning diqqat barqarorligi, emotsional holati va kognitiv faolligida ijobiy o'zgarishlarni ta'minladi. Sensorli relaksatsiya metodining qo'llanilishi esa emotsional zo'riqishni kamaytirib, inkluziv ta'lim muhitida psixologik qulaylikni mustahkamlashga xizmat qildi. Ushbu natijalar taklif etilgan modelning an'anaviy yondashuvlarga nisbatan ustunligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ainscow M. (2020). Promoting inclusion and equity in education. Lessons from international experiences. Nordic Journal of Studies in Educational Policy, 6(1), p. 7–16. https://doi.org/10.1080/20020317.2020.1729587

(2). Eshmamatova S.T., Akbaraliyeva S.U. (2025). Inkluziv ta'limning korreksion-kompensatsion yo'nalganlik amaliyoti. Tadqiqotlar, 70(2), 40–43-betlar.

(3). Ollaberganova M.M. Korreksion pedagogika asoslari. Inkluziv ta'lim. "Экономика и социум", 2024, 7-son (122).

(4). Toshboltayeva M. (2025). Inkluziv ta'lim tushunchasi va rivojlanish bosqichlari. "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali. https://doi.org/10.5281/zenodo.17496629

(5). Critchley H.D., Garfinkel S.N. (2017). Interoception and emotion. Current Opinion in Psychology, 17, p. 7–14. https://doi.org/10.1016/j.copsyc.2017.04.020

(6). Florian L. (2019). On the necessary co-existence of special and inclusive education. International Journal of Inclusive Education, 23(7–8), p. 691–704. https://doi.org/10.1080/13603116.2019.1622801

(7). Tilakova M.A. (2024). Inkluziv ta'lim ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etish. Pedagogs International Research Journal, 61(1), p. 22–27.

Mamatqulova Nilufar Fayzullaqulovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, p.f.f.d. (PhD); dotsent; n.mamatqulova@uzswlu.uz)

XORIJIY TIL DARSLARIDA EKOLINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy filologik ta'limda ekolingvistik yondashuvni xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish jarayoniga integratsiyalash masalalari tahlil qilinadi. Unda til o'rganish jarayonida ekologik ongni shakllantirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lim mazmuniga singdirishning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda ekolingvistika, "yashil" pedagogika, CLIL va CBI metodlari orqali ekologik mazmundagi materiallardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatib beriladi. Ekolingvistik yondashuv filolog talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ekologik ongini, tanqidiy fikrlashini va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda muhim omil ekani ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar*: ekolingvistika, filologik ta'lim, ekologik ong, barqaror rivojlanish, xorijiy tilni o'qitish, yashil pedagogika, CLIL, CBI, fanlararo integratsiya, ekolingvistik kompetensiya, til va mazmun integratsiyasi, barqarorlik ta'limi*

Маматкулова Нилуфар Файзуллакуловна (доцент, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), Узбекский государственный университет мировых языков; E-mail: n.mamatqulova@uzswlu.uz)

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы интеграции эколингвистического подхода в процесс преподавания иностранных языков, в частности английского, в современном филологическом образовании. Выделяются теоретические и практические основы формирования экологического сознания в процессе изучения языка и включения принципов устойчивого развития в содержание образования. Исследование демонстрирует эффективность использования материалов с экологическим содержанием посредством эколингвистики, «зеленой» педагогики, методов CLIL и CBI. Эколингвистический подход научно обоснован как важный фактор развития не только языковой компетенции, но и экологического сознания, критического мышления и социальной ответственности студентов-филологов.*

Ключевые слова: *филологическое образование, экологическое сознание, устойчивое развитие, обучение иностранным языкам, "зелёная" педагогика, CLIL, CBI, междисциплинарная интеграция, эколингвистическая компетенция, интеграция языка и содержания, образование в интересах устойчивого развития.*

Mamatkulova Nilufar Fayzullakulovna (Associate Professor, PhD in Pedagogy, Uzbekistan State World Languages University; E-mail: n.mamatqulova@uzswlu.uz)

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING ECOLINGUISTIC COMPETENCE AT FOREIGN LANGUAGE CLASSES

Annotation. *This article analyzes the issues of integrating the ecolinguistic approach into the process of teaching foreign languages, in particular English, in modern philological education. It highlights the theoretical and practical foundations of forming ecological awareness in the process of language learning, and incorporating the principles of sustainable development into the content of education. The study demonstrates the effectiveness of using materials with ecological content through ecolinguistics, "green" pedagogy, CLIL and CBI methods. The ecolinguistic approach is scientifically substantiated as an important factor in developing not only language competence, but also ecological awareness, critical thinking and social responsibility of philological students.*

Keywords: *Philological education, ecological awareness, sustainable development, foreign language teaching, green pedagogy, CLIL, CBI, interdisciplinary integration, ecolinguistic competence, language and content integration, education for sustainable development*

Kirish. So'nggi yillarda ekologik muammolarni til va madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganuvchi ekolingvistika yo'nalishi ilmiy tadqiqotlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ekolingvistika til orqali atrof-muhitga munosabatni shakllantirish, inson tafakkurida tabiatga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ekologik mazmunli materiallardan